O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

FITRATNING DRAMATIK ASARLARIDA MAQOLLARNING QO‘LLANILISHI VA FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

THE USE AND FUNCTIONAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS IN FITRAT’S DRAMATIC WORK

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/CVQQ1775

Imomova Ismigul Sirojiddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail ismigulimomova@gmail.com

Annotation. *This article examines the linguistic and semantic characteristics of proverbs used in the dramatic works of Abdurauf Fitrat, a prominent representative of Jadid literature. It analyzes the role and functions of proverbs in enhancing the writer's poetic skill, individualizing characters' speech, and increasing the ideological and artistic impact of the work. The study reveals the semantic types of proverbs in Fitrat's dramas, their connection to spoken folk language, and features characteristic of the author's individual style.*

Keywords: *Abdurauf Fitrat, dramaturgy, proverb, expressiveness, solidarity, knowledge and ignorance, laziness and diligence, time and life, arrogance, honor and dignity, freedom, liberty, honesty, truthfulness, human behavior, goodness, kinship, equality.*

Badiiy adabiyot tilining muhim uslubiy, lingvopoetik komponentlaridan birini maqollar, “qanotli so‘zlar” tashkil qiladi. Maqollar xalq tilida paydo bo‘lib, asrlar davomida sayqallanib, ma’lum shaklga kelgan “nutqiy quyma asar”lardir. Har qanday maqol ma’lum falsafiy, etikaviy-estetik mazmunga ega bo‘ladi. Maqollar kishilarning asrlar davomida o‘z hayotiy tajribalari natijasida orttirgan foydali maslahatlarining falsafiy-mantiqiy xulosasi, mag‘zidir. Maqollar badiiy adabiyot tilida yozuvchi aytmoqchi, isbotlamoqchi bo‘lgan fikrni ixcham, sodda, xalq uchun tushunarli, mantiqan siqiq hamda ta’sirchan ifodalashga imkon beradi. Shu sababli o‘z asarlarida xalq maqollari va hikmatli so‘zlariga murojaat qilmagan yozuvchi deyarli uchramaydi.

O‘zbek xalq maqollari o‘ziga xos semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqol, matal, so‘z o‘yinlari, qochirimlar tushunarli tilda, ortiqcha bezaklardan xoli, lekin mazmun-mohiyati chuqurligi bilan e’tiborni

tortadi. O‘zbek xalq maqollarida xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanib kelinmoqda. O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Badiiy adabiyot tilidagi maqollarning ma’noviy-uslubiy vazifalari o‘rganilgan ba’zi ishlar mavjud. Bular orasida Alisher Navoiy [6. – B. 67-75] , Muqimiy [3. – B. 52-55], Abdulla Qahhor [1. – B.82-85], Maqsud Shayxzoda [2. – B. 75-87] asarlari tilida uchraydigan maqollarni tahlil qilishga bag‘ishlangan izlanishlar diqqatga molikdir. Kuzatishlarimiz xalq maqol va hikmatli iboralari, aforizmlaridan Fitrat dramalarida ham unumli foydalanganligini ko‘rsatdi va ularning umumiy miqdori bizning hisobimizga ko‘ra 100 ga yaqindir. Xalq o‘zining hayoti va tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini maqollar orqali ifodalagan. O‘zbek maqollar mavzusi jihatdan rang-barangdir. Maqolga asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish so‘z san’atkorlarning markazida bo‘lgan. O‘zbek xalq maqollarini lingvistik jihatdan o‘rgangan olima B.Jo‘rayeva ularni bir necha jihatdan tasnif qiladi. Xususan, shakllanish omiliga ko‘ra semantik jihatdan hayvon nomlari asosida shakllangan, kasb-kor asosida shakllangan, diniy tushunchalar, uy-ro‘zg‘or tushunchalari, vaqt nomlari, o‘simlik nomlari, o‘zbek xalqi turmushi voqeligi asosida, tabiat hodisalari nomi asosida shakllangan maqollar tarzida turlarga ajratadi. Maqollar shakllanish asosiga ko‘ra iboralar asosida, folklor janrlari asosida, e’tiqodiy tushunchalar, xalq udumlari, xalq o‘yinlari, hadislar asosida shakllangan maqollar kabi tasniflanadi [4. 148-bet].

Maqol bu oddiy voqea yoki tafakkur asosida shakllangan, ko‘pincha xalqning tajribasi va hikmatini o‘zida aks ettiradi. Insonlar o‘rtasida do‘stlik, mehr-muruvvat hayotiy saboqlarni o‘rganishlarga yordam beradi. Ular xalqning tajribasi, hikmati va urf-odatlarini aks ettiradi. Maqol qachon paydo bo‘lganligi noma’lum, ammo u xalqimiz kabi qadimiydir. O‘rta Osiyo xalqlarining rivojlanishida maqol, matallarning ahamiyati nihoyatda katta. Maqollar yillar davomida yaratilib borilgan va sayqallangan. Maqollarda xalq og‘zaki ijodi sifatida ajdodlarimizning ko‘p yillik hayotiy tajribasi, jamiyatga munosabati, tarixi, iqtisodiyoti, axloqiy va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlangan. Tilshunos I.Mirzaaliyev maqollarni quyidagi 16 ta mavzuiy

guruhga ajratadi: 1. Birlik va hamjihatlik haqidagi maqollar. 2. Bilimlilik va bilimsizlik haqidagi maqollar. 3. Dangasalik va mehnatsevarlik haqidagi maqollar. 4. Vaqt va hayot tarzi bilan bog‘liq maqollar. 5. Manmanlik haqidagi maqollar. 6. Xoinlik haqidagi maqollar. 7. Kishining or-nomusi haqidagi maqollar. 8. Erkinlik, ozodlik haqidagi maqollar. 9. Rizq-nasiba haqidagi maqollar. 10. Halollik haqidagi maqollar. 11. Kishi taqdiri haqidagi maqollar. 12. To‘g‘riso‘zlik haqidagi maqollar. 13. Kishining fe’l-atvori haqidagi maqollar. 14. Ezgulik bilan bog‘liq maqollar. 15. Qarindosh-urug‘chilik haqidagi maqollar. 16. Tenglik haqidagi maqollar[5. 50].

Tilshunos I.Mirzaaliyev tasnifiga ko‘ra Fitrat dramalaridagi maqollarni ham xuddi shunday guruhlarga bo‘lib tahlil qildik. Uni quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin.

T/R	Mavzu guruhi (I.Mirzaaliyev tasnifi)	Maqollar
1	Birlik va hamjihatlik haqida	“El birlashsa, mulla och qolur”, “Birniki mingga, mingniki olamga”
2	Erkinlik, ozodlik haqidagi maqollar	“Qochsang quvar, quvsang qoparlar”, “Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas”
3	Kishining fe’l-atvori haqidagi maqollar	“Burga uchun ko‘rpani o‘tga solmam”, “Ko‘p so‘z tuyaga yukdir”, “Yoshlik – beboshlik”, “O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas”
4	Vaqt va hayot tarzi bilan bog‘liq maqollar	“Eski hammom, eski tos!”, “Och qornim, tinch qulog‘im”
5	Tenglik haqidagi maqol	“O‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan”
6	Kishi taqdiri haqidagi maqollar	“Boshga tushganni ko‘z tortar”, “Bosh sog‘ bo‘lsa, do‘ppi topilar”

Maqol folklorning o‘zgarishlarga uchragan holda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan qismiga tegishli. Maqol orqali yetkazilgan fikrning o‘tkirligi, bizningcha, hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Asrlar davomida yaratilib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan maqollar xalq turmush tarzini qo‘llab-quvvatlagan, xalqning ma’naviy-axloqiy qiyofasini mustahkamlagan. Ular xalqning amrlariga o‘xshaydi, har bir oddiy odamning hayotini tartibga soladi. Bu odamlar ko‘p asrlik tajriba orqali kelgan fikrlarning ifodasidir. Maqol doimo ibratli, lekin bazida ham ibratli emas. Biroq, har biridan e’tiborga olish foydali bo‘lgan xulosa chiqariladi. Ma’lumki, maqollarni o‘rganuvchi fan “paremiologiya” deb ataladi. “Paremiologiya” so‘zi yunoncha paremiya so‘zidan olingan - masal, maqol, frazeologiyaning paremiyani o‘rganish va tasniflashga bag‘ishlangan bo‘limi - maqollar, aforizmlar, topishmoqlar, belgilar va boshqa so‘zlar, ularning asosiy maqsadi guruh, odamlarning hayotiy tajribasiga asoslangan an’anaviy qadriyatlar va qarashlarning qisqacha majoziy og‘zaki ifodasi, ya’ni ba’zi tadqiqotchilar frazeologizmga tegishli tildagi shakllanishlar. keng ma’noda tilning shakllanishidir. Xalq va uning tili bilan bir qatorda maqol tug‘iladi, insonlar u bilan yashaydilar. Sharq xalqlari maqollarni “til gullari” deb atashadi. Shunday qilib, maqol nutq muomalasiga kiritilgan va ibratli ma’noga ega bo‘lgan qisqa, ritmik tarzda tashkil etilgan maqol bo‘lib, unda odamlar asrlar davomida o‘zlarining ijtimoiy — tarixiy tajribalarini umumlashtirdilar. U muayyan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan. Turli mualliflar maqollarning quyidagi funktsiyalariga ishora qiladilar: 1) informatsion funktsiy – maqollarga nutqda u yoki bu tarkibni etkazishga imkon beradi; 2) argumentatsiya funktsiyasi — maqollarning donoligiga ishonish imkonini beradi. Maqollarda “xalq donoligi” ifodalangan va bu maqolni nutq aloqasida ajralmas daliliy vositaga aylantiradi va uni hukmiga bo‘ysunishga majbur qiladi; 3) estetik funktsiya – nutqni bezatish; 4) Saqlash funktsiya — maqollarda odamlar eng qimmatli tajribani qayd etadilar va uni keyingi avlodlarga o‘tkazib, xotirasida saqlaydilar.

“Burga uchun ko‘rpani o‘tga solmam” – Rahimbaxsh bu maqol-orqali kichik bir muammo (ayollarning begona nikohdan saqlanishi) deb kattaroq qadriyatni (ayollarning erkinligi) qurbon qilmaslik kerakligini ta’kidlaydi. *“Birniki mingga, mingniki olamga”* - Mansurboy tomonidan qo‘llanilgan bu maqol isyonkor yoshlarning (Arslon kabi) harakati butun tizim uchun xavfli ekanligini anglatuvchi tahdid diskursidir. Ushbu maqolning ma’nosi bir kishining boshlagan g‘alvasi yoki harakati oxiri borib ming kishiga, butun elga tarqaladi, hammaga ta’sir qiladi degan ma’noda “Arslon” dramasida keltirilgan[7.98]. *“Ikki*

uy birlashgach, kuchimiz ortadi” – xalq maqolining (“Ikki bo‘lsang – bir bo‘lasan” yoki *“Ko‘p birlashsa tog‘ni talqon qiladi”* kabi maqollarning) muallif tomonidan asar kontekstiga moslab o‘zgartirilgan shakli. Ushbu maqolni keltirish orqali yozuvchi oilaviy va ijtimoiy birlik orqali zolimlarga, mavjud ijtimoiy adolatsizlikka qarshi turish falsafasini bildiradi. Birlik – kuchda ekanligini anglatadi. *“Olish bor, berish yo‘qmi?”* – ushbu maqol *“Olishning berishi ham bor”* maqoliga mos keladi. Bunda “Faqat foyda ko‘rishni, olishni bilasan-u, evaziga majburiyatingni bajarishga kelganda qochasanmi?” degani. Asarda boy qahramonga (Arslonga) yer berganini yoki qarzini eslatib, uni bo‘ysundirish, “tilini qisib qo‘yish” uchun ishlatgan[7.104].

Asarda Poshshooyim va Boy nutqida maqol va iboralar juda ko‘p qo‘llanilgan. Bu orqali adib Poshshooyim va Boy nutqlarini individuallashtirgan. Masalan, “Boy ila xizmatchi” dramasida ham o‘ziga xos maqollardan foydalanilgan. Boy nutqida *“Hisobli do‘st ayrilmas”* maqoli keltirilgan bo‘lib, ushbu maqol, boy o‘z o‘g‘lidan qarz olgan bo‘ladi va uni qaytarib beradi. Shunda G‘ofir pulni olmayman deganida, boy unga qaytarib beradi va natijada boyning qarz bo‘lib qolmasligi, xarakteri shu birgina maqol orqali ochib berilgan. Bundan tashqari asarda tabaqalash maqsadida quyidagi maqol ham qo‘llanilgan*: “Boy boyga boqar, Suv soyga oqar”* maqoli Boy tilidan aytilgan. Haqiqatdan Boyning puli ko‘pligidan bir nechta xotinlar oladi. Hattoki, xizmatkori xotiniga ham oshiq bo‘lib qolgan Boy uni ham olish uchun har qanday ishga tayyor edi. Aynan asarda shu maqol orqali tabaqalanish oddiy xizmatkorning qo‘lidan hech narsa kela olmasligi ochib berilgan. Badiiy asar tili umumxalq tiliga ijodiy yondashish, o‘zgarish, o‘zlashtirish asosida yuzaga kelgan, qayta ishlanib, jilo berilib, qo‘llanishning tegishli me’yor va o‘lchovlarini olgan, milliy til madaniyatining yuksak fazilatlarini o‘zida namoyon etgan, umumxalq tilidagi vositalar va me’yorlar taraqqiyotiga ham ijodiy, ijobiy ta’sir etadigan tildir.

So‘z ustasi badiiy asar yaratar ekan, tilning maxsus birliklaridan, shu jumladan, maqol va iboralardan qahramonlarning nutqini individuallashtirishda unumli foydalanadi. Fitrat o‘z asarlarida intertekstual birlik sifatida maqollardan foydalangan bo‘lib, ushbu birliklar orqali qahramonlarning xatti-harakteri, oddiy xalq vakili ekanligini, shu bilan birga samimiy, ochiq ko‘ngil insonligini ochiq ifoda etilgan. Dramada Boy va Poshshooyim nutqida ham maqol va iboralar ko‘plab keltirilgan. Bunda yozuvchi qahramonlarning oddiy odamlar ustidan kulishi, ularni tahqirlashi va o‘zlarining johilliklari bois barchani qiynagani, ayniqsa, asar qahramoni Gulbahorni oxiri o‘ldirib yuborganligi ham yaqqol

ma’lum. Bu bilan Boyning xarakteri, qanchalik razil inson ekanligi, bundan tashqari ko‘p xotinbozlik holatlari asarda qoralangan. Badiiy adabiyot tili oddiy til emas, obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi til sanaladi. Badiiy tilda emotsionallik, serqatlamlilik, obrazlilik, musiqiylik, serbo‘yoqlik, ixshamlik mavjud bo‘ladi. Shu ma’noda Fitrat dramalari ham til qurilishi jihatidan rang-barangdir.

Ko‘rinib turganidek, xulosa qilib aytganda dramalarda muallif dono xalqimiz og‘zaki ijodiga tegishli maqollardan unumli foydalana olgan. Bu esa asarning badiiy qimmatini ta’minlash bilan birga, xalq og‘zaki ijodining betakror qirralarini ochib bergan.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева А. Употребление народных пословиц в романе Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1971. – № 188. – Б. 82- 85;

2. Ёриев Б. Шайхзода поэмасида мақол ва афоризмлар // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1977. – № 325. – Б. 75-87.

3. Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – № 4. – Б. 52-55.

4. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: : Filol. fan. doktori (DSc) … diss.. – Toshkent, 2019.

5. Mirzaaliyev I. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi. (“Devonu lug‘ati-t-turk” materiali misolida): Filol.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020.

6. Муталлибов С. Навоийдаги ҳикматли сўз ва иборалардан баъзи намуналар // Адабий мерос. –Тошкент, 1976. – № 6. – Б. 67-75;

7. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият, 2003. 221-bet

8. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. III жилд. –Т.: Маънавият,2003. 100-bet.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**